

**QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIYAT  
VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI**

*Ro‘ziyeva Nazira Ochilovna (o‘qituvchi)*

*Bobomurodov Asilbek Azamat o‘g‘li (talaba)*

*Ahmadov Xudoyberdi Olimjon o‘g‘li (talaba)*

*Sayfiddinov Shahobiddin Faxriddin o‘g‘li (talaba)*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

**Annatatsiya:** Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida fermerlar va agronomlarga raqamli texnologiyalar yordamga kelmoqda. Ushbu maqolada Qishloq xo‘jaligida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Qolaversa, qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanishda raqamlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘zbekistonda rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan sohalarda raqamli texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Aytish kerakki, qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muammolar, tezkor hal etish zarur bo‘lgan masalalar oz emas. Axborot texnologiyalari qishloq xo‘jaligida yerni hisobga olish va monitoring qilishda juda qo‘l keladi.

**Аннотация:** Сегодня компьютерные технологии помогают фермерам и агрономам в сельском хозяйстве. Новые инновационные методы и технологии в сельском хозяйстве рассмотрены в трех статьях. Кроме того, эффективная цифровизация сельскохозяйственных ресурсов имеет свои особенности. Компьютерные технологии, имеющие большую сеть в Узбекистане, ориентированы на широкую поддержку. Надо сказать, что в сфере экономики существует множество проблем и вопросов, которые необходимо оперативно решать. Информационные технологии очень полезны при приобретении земель и мониторинге в сельском хозяйстве.

*Annotation:* Today, digital technologies are helping farmers and agronomists in agriculture. This article refers to the use of new innovative techniques and technologies in agriculture. In addition, digitalization has its own characteristics in the effective use of agricultural resources. In Uzbekistan, special attention is paid to the wide implementation of digital technologies in areas of great importance for development. It should be said that there are many problems with the introduction of digital technologies in the agriculture and water management sectors, and there are many issues that need to be solved quickly. Information technologies are very useful in land accounting and monitoring in agriculture.

**Kalit soʻzlar:** yer resurslari, suv tarmoqlari, raqamli texnologiya, agroturizm, texnika-texnologiya, qishloq xoʻjaligi, resurslar, raqamlashtirish, samarali foydalanish.

**Ключевые слова:** земельные ресурсы, водные сети, цифровые технологии, агротуризм, технологии, сельское хозяйство, ресурсы, цифровизация, эффективное использование.

**Key words:** land resources, water networks, digital technology, agrotourism, technology, agriculture, resources, digitization, effective use.

Bugungi kunda Joriy yil 28 aprelda “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident qarori asosida barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga raqamli texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Ushbu dasturning eng dolzarb yoʻnalishlaridan biri qishloq xoʻjaligi sohasidir. Mazkur qaror maqsad va vazifalaridan kelib chiqib “Raqamli qishloq xoʻjaligi” axborot tizimi joriy etilishi koʻzda tutilgan. Mazkur loyihaning dolzarbligi oʻta yuqori boʻlib, uning amalga oshirilishi qishloq xoʻjaligining samaradorligini yanada oshiradi. “Raqamli qishloq xoʻjaligi” axborot tizimini joriy etilishi mazkur sohada katta hududlarni qamrab olish hisobidan monitoring ishlarining samaradorligini oshirishga, vaqt va pul xarajatlarining keskin kamayishiga yordam beradi. Hozirgi paytda axborot va kommunikatsion texnologiyalar qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishda muhim oʻrin

tutmoqda. Ushbu texnologiyalarning kirib kelishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari sifatini oshiribgina qolmay, oziq-ovqat va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksportining oshishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mavjud qishloq xo‘jaligi raqamli texnologiyalari yordamida katta miqdordagi ma‘lumotlarini tahlil qilish hamda qayta ishlash, turli xil axborotlarni bir platformada jamlash, samarali ishlab chiqarishni nazorat qilish va ko‘p sonli qishloq xo‘jaligi subyektlarini kerakli ma‘lumot bilan ta‘minlash mumkin bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda ishchi kuchining 33,2 foizi ishlaydi va yalpi ichki mahsulotning 28,7 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligida qishloq aholisining qariyb 26 foizi ishlaydi va fuqarolarning 49 foizi qishloq joylarida yashaydigan O‘zbekiston uchun bu juda muhim. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari paxta, bug‘doy, kartoshka, meva va sabzavotlardir. Ammo, so‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi oqibatlari, suv tanqisligi, ko‘payib borayotgan ekinlar kasalliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq muammolar qishloq xo‘jaligi hosildorligiga jiddiy tahdid solmoqda va fermerlarning daromadlarini sezilarli darajada qisqartirmoqda.

### **Xulosa.**

Demak, raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati haqiqatdan ham dolzarbdir. Ammo, har bir ferma (har bir fermer) ham internetga ulangan emas. Mazkur tizim natijasida shaxsiy xo‘jaliklar daromadi ikki yilda 12 foizga o‘sgan. O‘zining barcha afzalliklariga qaramay, aqlli qishloq xo‘jaligi hali rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida. Tomchilatib sug‘orish bilan siz faqat ildiz tizimini namlashni boshlaysiz. Bunday holda, suv o‘simlik tomonidan kerakli miqdorda tezda so‘riladi va uning o‘sishi va rivojlanishiga zarar etkazmasdan yordam beradi. An‘anaviy sug‘orish bilan solishtirganda, tomchilardan foydalanganda, tuproqning tabiiy tuzilishi buzilmaydi. Kuchli quyosh nurlari bilan o‘simliklar nobud bo‘lmaydi, bu barglarga tomchilar tushganda kuzatiladi. Avtomatlashtirilgan tomchilatib sug‘orish tizimi bilan sug‘orish insonning minimal aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Suv tuproqqa faqat ildiz tizimi yotadigan joylarda kiradi, u har bir o‘simlik uchun bir tekis va doimiy ravishda

zarur bo‘lgan miqdorda etkazib beriladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, usuldan foydalanganda oldingi hajmning 60% gacha yuqori tejashga erishish mumkin. Suvga kelsak, u insonni qutqarishga qodir, chunki bizning tanamiz 80-90% suvdan iborat bo‘lishi bejiz emas. Bundan tashqari, tanadagi suv qancha ko‘p bo‘lsa, odam shunchalik yaxshi ko‘rinadi va u yoshroq bo‘ladi. Alohida ta‘kidlash joizki, tomchilatib sug‘orish suvni tejashdan tashqari, o‘simliklarni o‘sishi uchun zarur bo‘lgan mineral va organik moddalar bilan ta‘minlashga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. B.S.Musayev, U.S.Qosimov, “Agrokimyo” Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma Ikkrnchi nashri Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2016 yil.
2. Abdullayev S./I. Tuproq meliorasiyasi. Toshkent, Universitet, 2000.
3. Gafurova L.A., Abdullayev S. A., Nomozov X. Meliorativ tuproqshunoslik. Milliy ensiklopediya, 2004.
4. Sattorov J.S. Tuproqdagi oziq elem entlar zaxirasini saqlash va ko‘paytirish usullari va rezervlari. Toshkent, Agroizdat, 2004.
5. Sidiqov S., Sattorov J. Tuproqlarni agrokimyoviy xaritalash va o‘g‘itlardan differensial foydalanish. Metodik ko‘rsatma. Toshkent, Universitet, 1993.
6. Sidiqov S. Umumiy dehqonchilik. Toshkent, Universitet, 2008.
7. Sidiqov S. Agrokimyoviy tekshirish usullari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Universitet, 1995.
8. Musayev B.S. Agrokimyo. Toshkent, Sharq, 2001.
9. Musayev B.S., Qosimov U.S. Agrokimyo. Cho‘lpon, 2007.
- 10.Автор: Ходжамуратова Г 2021 Цитируется: 1 — Хусанов Р.Х. Экономические реформы в сельском хозяйстве и аграрной экономике. – Т.: Яги Аср Авлодоли, 2004. – 205 с. Омурзоков О'.П. и
- 11.Автор: ВА Musayevich — Raqamli texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qaror qabul qilish.

**Elektron adabiyotlar**

[www.lex.uz](http://www.lex.uz) - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - Axborot ta’lim portali.

[www.edu.uz](http://www.edu.uz) - Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.